

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

4-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 4 (6) – 2026

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahammadovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdulkaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Sulaymanova Dildora Nazarovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Махмудова Нигора Баротовна</i> ИСТОРИЧЕСКИЙ ОБЗОР ПЕНИТЕНЦИРНОГО ДЕЛА В КОЛОНИАЛЬНОМ ТУРКЕСТАНСКОМ КРАЕ, ПО ОТЧЁТАМ РЕВИЗИИ СЕНАТОРА К.К.ПАЛЕНА	10-15
<i>Esonov Ziyodbek Yuldashevich</i> RISHTON KULOLCHILIK MAKTABI VA UNING LOKAL XUSUSIYATLARI ETNOGRAFIK TAHLILI	16-20
<i>Абдиев Рузикул Буронович</i> ИСТОРИКО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ СОХРАНЕНИЯ АРХИТЕКТУРНОГО НАСЛЕДИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	21-27
<i>Абдужаббаров Шерзод</i> ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ, ФУНКЦИИ И ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ СУЩЕСТВОВАНИЯ И РАБОТЫ СОВЕТА ТУРКЕСТАНСКОГО ГЕНЕРАЛ-ГУБЕРНАТОРА	28-33
<i>Boymurodov Shuxrat Toshkentovich</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA O'RTA MAXSUS TA'LIM, SOHASIDA MA'NAVIIY YANGILANISH	34-38
<i>Жураева Нафиса Олимовна</i> ТОПОГРАФИЧЕСКОЕ ВЛИЯНИЕ КУЛЬТОВЫХ СООРУЖЕНИЯХ НА ФОРМИРОВАНИЕ ГУЗАРОВ ГОРОДА БУХАРЫ	39-45
<i>Safarov Akmal</i> SUV XO'JALIGI SOHASI UCHUN MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	46-52
<i>Tursunova Mahliyo Sarvar qizi</i> XORIJIIY INVESTITSIYALAR ISHTIROKIDAGI KORXONALAR FAOLIYATINING HUDUDIIY IJTIMOIIY-IQTISODIIY HAYOTGA TA'SIRI (JIZZAX VILOYATI MISOLIDA, 1991- 2026 -YILLAR).....	53-57
<i>Mardiyeva Guzal Karimovna</i> SAMARQAND VILOYATIDA SOVET DAVRINING DASTLABKI YILLARIDA XOTIN-QIZLARINING OLIY TA'LIMGA KIRISH IMKONIYATLARI VA CHEKLOVLAR	58-62
<i>Kenjayev Elyor Sattorovich</i> YANGI O'ZBEKISTONNI BARPO ETISHDA STRATEGIK ISLOHOTLAR: TARAQQIYOT VA MA'NAVIIY YUKSALISH UYG'UNLIGI	63-70
<i>Polvonov Kozimbek Naimovich, Polvonov Anvar Naimovich</i> QASHQADARYODAGI YETAKCHI O'QUV DARGOHLARIDAN BIRI	71-79
<i>Mo'minova Gavxar Esanovna</i> O'ZBEKISTON SAVDO TARIXINI O'RGANISHDA DAVLAT ARXIVLARI HUJJATLARINING O'RNI	80-85
<i>Norboyev Sarvar Qahramon o'g'li</i> O'ZBEKISTON TARIXIIY SHAHARLARINING XALQARO MIQYOSDA TAN OLINISHI	86-90

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Tillabaeva Umida Makhsumovna, Talipova Nigora Tulkunovna</i> DIGITALIZATION AND EMPLOYABILITY: A BIBLIOMETRIC ANALYSIS OF RESEARCH TRENDS (2018–2025)	91-100
<i>Xudoyorov Lochinbek Bahromovich</i> O'ZBEKISTON SERVIS SOHASIDA XIZMATLAR SIFATI KO'RSATKICHLARINING DINAMIK TAHLILI	101-107
<i>Toxirov Akbarxon Toirxon o'g'li</i> INNOVATSION MARKETING INDEKSI ASOSIDA KORXONALARNING IQTISODIY XAVFSIZLIGI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASH METODOLOGIYASI	108-113
<i>Ismoilov Bekzod Muxidinovich</i> GLOBALLASHUV SHAROITIDA TURIZM SOHASINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI	114-118
<i>Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich</i> O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK MUAMMOLARNING IJTIMOIIY-IQTISODIY OQIBATLARI KELIB CHIQISHI	119-135
<i>Nishonova Shaxnozaxon</i> ZAMONAVIY IQTISODIY TIZIM SHAROITIDA LOYIHALARNI BOSHQARISH YONDASHUVLARI	136-140
<i>Fayziyeva Aziza Azamat qizi</i> SURXONDARYO VILOYATIDA KICHIK TADBIRKORLIK FAOLIYATINING BANDLIK KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI: ARIMA MODEL ASOSIDA PROGNOZ VA TAHLIL	141-154

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Ismoilov Maxamadixon Isroilovich</i> IQTISODIY RATSIONALIZM: TUSHUNCHA, EVOLYUTSIYA VA NAZARIY CHEGARALAR.....	155-165
<i>Beshimov Xamidjon Sayidovich</i> O'ZBEKISTONDA KASABA UYUSHMALARINING IJTIMOIIY ADOLATNI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI	166-175
<i>Obidov Asliddin Shavkatovich</i> SAID AD-DIN AL-FARG'ONIY TA'LIMOTIDA ONTOLOGIK VA GNOSEOLOGIK ASOSLAR	176-181
<i>Abduraxmov Xasan Ibroximovich</i> KOGNITIV-AXBOROT MUHITINING SUN'IY INTELLEKT SHAROITIDA YOSHLAR IJODKORLIGI VA TASHABBUSKORLIGIGA TA'SIRI.....	182-188
<i>Xolova Umida Umedovna</i> "O'RTA ASRLAR FALSAFIY TAFAKKURIDA MA'RIFAT KONSEPSIYASINING TARIXIY-FALSAFIY EVOLYUTSIYASI: TEOLOGIK VA MA'RIFIY BOSQICHLAR TAHLILI"	189-192
<i>Rajabova Rohila Zakirovna</i> AHMAD DONISH'S PHILOSOPHICAL VIEWS IN HIS WORK "NAVODIR UL-VAKOE"	193-197
<i>Kabulov Jahongir Bakhodirovich</i> SEPARATIZMNING ASIMMETRIK XUSUSIYATI.....	198-202
<i>Eshkuvvatov Jaloliddin</i> MADANIYATLARARO MULOQOTDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR SINTEZI..	203-210

<i>Jomuradov Ikrom Ilxom o'g'li</i> IMMANUIL KANT VA ZAMONAVIY FALSAFADA NOUMENAL ERKINLIK MUAMMOSI: FENOMENAL DETERMINIZM BILAN BOG'LIQ ANTINOMIK ZIDDIYATNING DOLZARB TALQINLARI.....	211-215
<i>Rustamova Madina</i> OMMAVIY MANIPULYATSIIYANING DESTRUKTIV XUSUSIYATI: TAHDIDLAR VA OQIBATLAR.....	216-220
<i>Yodgorov Alisher Nurmuhammadovich</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA IJTIMOYIY MUNOSABATLARNING TRANSFORMATSIIYASI.....	221-225

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Isanova Feruza Tulqinovna</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA XALQARO HUQUQ TERMINOLOGIYASINING GIBRID TABIATI: SHAKLLANISH MANBALARI, STRUKTUR-SEMANTIK XUSUSIYATLARI VA FUNKSIONAL TAHLILI	226-232
<i>Rahmatov Laziz, Baxronova Dilrabo</i> ABYA YALA (LOTIN AMERIKASI) DAVLATLARI NOMLARINING LINGVOPOLITIK DISKURSI: ETIMOLOGIK VA GEOSIYOSIY TAHLIL	233-241
<i>Quvvatova Shaxlo Choriyevna</i> XOLID HUSAYNIYNING “MING QUYOSH SHU'LASI” ASARI TAHLILI.....	242-246
<i>Elmuratova Zamira Xodjamuratovna</i> NAQLLAR VA MAQOLLARNING FOLKLOR JANRIDAGI ROLI.....	247-251

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Shayzakov Shodiyor Ibragimovich</i> QONUNIY KUCHGA KIRMAGAN SUD HUIJATLARI USTIDAN APELLYATSIYA TARTIBIDA SHIKOYAT QILISHNING PROTSESSUAL-HUQUQIY ASOSLARI.....	252-261
<i>Umarova Xolisxon Nomoz qizi</i> O'ZBEKISTONDA RAQOBATGA QARSHI KELISHUVLAR HAQIDA XABAR BERGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK DAN OZOD QILISH VA JARIMALARNI KAMAYTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	262-269
<i>Аминова Наргиза</i> ОТ СЕКУЛЯРИЗМА К ПОСТСЕКУЛЯРНОСТИ: МОДЕЛИ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ РЕЛИГИОЗНОГО И СВЕТСКОГО В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ	270-277
<i>Amirov Agzamxon Aktamovich</i> QURILISHDA ULUSHLI ISHTIROK ETISH TUSHUNCHASINING TAHLILI.....	278-283
<i>Mamatmurodov Farrux Farxod o'g'li</i> SUKUKNING NAZARIY POYDEVORI HAMDA TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI: ZAMONAVIY KAPITAL BOZORIDAGI O'RNI.....	284-294
<i>Kabilov Sardor Asrolovich</i> JINOIY JAVOBGARLIK DAN OZOD QILISH TURLARI VA UNING HUQUQIY ASOSLARI	295-300

<i>Nosirov Bekzod O'ktam o'g'li</i> ETIL SPIRTI, ALKOGOL VA TAMAKI MAHSULOTLARINI VOJXONA CHEGARASIDAN NOQONUNIY OLIB O'TISH	301-304
<i>Sabirova Kuvanchay Babamuratovna</i> ГЕНДЕРНОЕ НАСИЛИЕ, УСИЛЕННОЕ ИСКУССТВЕННЫМ ИНТЕЛЛЕКТОМ: ВЫЗОВЫ МЕЖДУНАРОДНОМУ ГУМАНИТАРНОМУ ПРАВУ И ПРОБЕЛЫ В ПРАВОВОМ РЕГУЛИРОВАНИИ	305-310
<i>Urinboyeva Muxlisa Ma'rufovna</i> MEDIATSIYA INSTITUTIDA SUN'IY INTELEKT IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH MASALALARI	311-318
<i>Majidov Islomjon Dilshod o'g'li</i> YAQIN QARINDOSHLAR BILAN BOG'LIQ HOLATLARDA TRANSPORT VOSITALARI HARAKATI YOKI ULARDAN FOYDALANISH XAVFSIZLIGI QOIDALARINI BUZISH JINOYATLARINI KVALIFIKATSIYA QILISHDA INSONPARVARLIK PRINSIPINI QO'LLASH MASALALARI	319-325
<i>Habibullayev Muhammadrajab Obidjon o'g'li</i> HUQUQ VA IMKONIYATLAR MUVOZANATI: O'ZBEKISTONDA GENDER ADOLAT SARI YO'L.....	326-331
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Qurbonova Dilafroz Toshturdiyevna</i> TEMURIY MALIKALAR MA'NAVIY MEROSINING TARIXIY, ILMIY-ADABIY MANBALARDAGI TALQININI TALABA-QIZLARGA O'RGATISH	332-337
<i>Tursunaliyev Shaxzod Sherali o'g'li</i> SUMMATIVE ASSESSMENT AS A CONTEXT FOR DEVELOPING STUDENTS' CRITICAL THINKING COMPETENCE: THE PROBLEM DIMENSION	338-344
<i>Abdullayeva Surayyo Ashrafxonovna</i> AUTISTIK SPEKTR BUZILISHLARIGA EGA BOLALAR TA'LIMI VA TARBIYASINING TARIXIY SHAKLLANISHI HAMDA IJTIMOYIY ASOSLARI	345-354
<i>G'affarova Dilfuza Shavkat qizi</i> TALABALARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING DIDAKTIK IMKONIYATLARI.....	355-360
<i>Turdimuratov Dilmurad Yuldashevich</i> THE IMPACT OF VOLITIONAL QUALITIES OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS ON THE DEVELOPMENT OF BEHAVIORAL RESPONSES ENSURING EFFECTIVE SPORTS PERFORMANCE.....	361-367

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI – PEDAGOGICAL SCIENCE

Received: 16 March 2026
Accepted: 01 April 2026
Published: 15 April 2026

Article / Original Paper

TEACHING STUDENTS THE INTERPRETATION OF THE SPIRITUAL HERITAGE OF TIMURIAN QUEENS IN HISTORICAL, SCIENTIFIC, AND LITERARY SOURCES

Kurbanova Dilafruz Toshturdiyevna

Acting Associate Professor

Department of Pedagogy and Psychology (PHD)

Samarkand Branch of the Tashkent International University of Kimyo

Abstract. This article analyzes the spiritual heritage of the Timurid queens as interpreted in historical, scientific, and literary sources. Particular attention is given to the activities of prominent women of the Timurid era such as Saraymulk Khanum, Gawharshad Begum, Gulbadan Begim and others, highlighting their contributions to state governance, science, culture, and charitable activities. Based on historical sources, tazkiras, and modern scholarly research, the article reveals the role and significance of women in the spiritual and intellectual life of the Timurid period. It also examines the importance of the spiritual heritage of Timurid queens for contemporary cultural and educational development.

Keywords: Timurid period, Timurid queens, spiritual heritage, historical sources, scientific and literary sources, Saraymulk Khanum, Gawharshad Begum, women's activities, culture and enlightenment, charity.

TEMURIY MALIKALAR MA'NAVIY MEROSINING TARIXIY, ILMIY-ADABIY MANBALARDAGI TALQININI TALABA-QIZLARGA O'RGATISH

Qurbanova Dilafruz Toshturdiyevna

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

Samarqand filiali Pedagogika va psixologiya kafedrası

(PHD) p.f.b.f.d. v.b.dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Temuriy malikalar ma'naviy merosining tarixiy, ilmiy va adabiy manbalarda aks etishi tahlil qilinadi. Xususan, Temuriylar davrida faoliyat yuritgan malikalar - Saroymulkxonim, Gavharshodbegim, Gulbadanbegim va boshqa ayol siymolarning davlat boshqaruvi, ilm-fan, madaniyat hamda xayriya ishlari rivojiga qo'shgan hissasi yoritiladi. Maqolada ularning faoliyati tarixiy manbalar, tazkiralari va ilmiy tadqiqotlar asosida o'rganilib, Temuriylar davrida ayollar ma'naviy-ma'rifiy hayotining o'rni va ahamiyati ochib beriladi. Shuningdek, Temuriy malikalar merosining bugungi kun madaniy-ma'rifiy taraqqiyotidagi ahamiyati ham tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Temuriylar davri, Temuriy malikalar, ma'naviy meros, tarixiy manbalar, ilmiy-adabiy manbalar, Saroymulkxonim, Gavharshodbegim, ayollar faoliyati, madaniyat va ma'rifat, xayriya ishlari.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I4Y2026N47>

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev yoshlarni vatanparvarlik, milliy iftixor ruhida tarbiyalash, buning uchun tarixni yaxshi o'rgatish, bu yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish masalasida "Milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak. Aks holda uning tarbiyaviy ta'siri bo'lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga

o'rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur", – deya ta'kidlagan edi [1].

Biz yurtimizni yangi bosqichga, yangi yuksak marraga olib chiqmoqchi ekanmiz, bunda bizga yorug' g'oya kerak. Bu g'oyaning zamirida xalqimizning o'zligini anglash yotadi. Haqqoniy tarixni bilmasdan turib esa o'zlikni anglash mumkin emas. Fanda bizning tarixiy ildiztomirlarimizni aniqlaydigan, milliy g'ururimizni yuksaltiradigan yangi yo'nalishlar paydo bo'lishi kerak. Bugungi kunda umummilliy harakatga aylangan "Yangi O'zbekiston" g'oyasi zamirida yuqori ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega o'zbek qizi siymosini yaratish zarurati ushbu ilmiy tadqiqotimizni yozilishiga turtki berdi.

Jahon tarixida ijtimoiy hayotning barcha sohalarida erkaklar bilan bir qatorda faoliyat ko'rsatayotgan buyuk jasorat sohibalarining nomlari faxr bilan tilga olinadi. Ayollar orasidan buyuk hukmdorlar, oqila, maslahatgo'ylar, etuk donishmandlar, iste'dodli olimalar, suxandonlar, shoiralar, tarixchilar, zukko san'atshunoslar etishib chiqqan. Jumladan, massagetlar hukmdori To'maris, qadimiy Palmiraning hukmdori Zinoviya, ispan qirolichasi Izabella, arman malikasi Tamara, Buyuk Britaniya bosh vaziri Margarit Tetcher, Pokiston bosh vaziri Benazir Buxutto, Germaniya kansleri Angela Merkel, Braziliya prezidenti Dilma Russel, Hindiston bosh vaziri Indira Gandilar o'z davrining etuk siyosatdon hukmdorlari bo'lishgan. Bunday hukmdor, olimalar, shoira va donishmand ayollar G'arbda barmaq bilan sanalsa-da Sharq mamlakatlarida ular ko'pchilikni tashkil qiladi. Dunyo ta'lim tizimida shaxsni jismoniy va ma'naviy jihatdan tarbiyalash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yetakchi oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlarida talaba-qizlarni o'zi taxtga o'tirgan, hukmdorlarga rafiqalik yoki qizlik mavqeyiga tayanib, ulkan tadbirlarni amalga oshirgan va shu tufayli tarixda nomlari qolgan ayollar faoliyati hamda ularning ma'naviy merosini o'rganishga bag'ishlangan bir qator ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilgan.

Tariximizda XIV-XVI asrlar chuqur iz qoldirgan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu davrda iqtisodiy, siyosiy, madaniy sohada muhim o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bir so'z bilan aytganda tarixda Temur va temuriylar davri sivilizatsiyasi yuzaga keldi. Markazlashgan davlatning tashkil topishi natijasida maorif, ilm-fan, madaniyat, qurilish va obodonchilik ishlari yuqori pog'onaga ko'tarildi. Ayniqsa, ta'lim-tarbiya sohasini rivojlantirishga e'tibor qaratildi. Amir Temur va temuriylar davri tarixi haqqoniy va xolisona o'rganila boshlandi. Aniqrog'i, bu davr tarixini yoshlar ongiga singdirishda milliy mafkuramiz nuqtai-nazaridan yondashilayotganligi e'tiborga molikdir. Amir Temur va temuriylar davridagi maorif va ta'lim-tarbiyaga oid rivojlanishida bevosita temuriy malikalarning o'rni beqiyos bo'lgan. Erkakka hurmat, sharm-hayo, uyat, andisha, iymon-e'tiqodlilik o'zbek ayoliga xos fazilat. Shu bois, azaldan tajribali, andishali, sadoqatli, iboli, hayoli, mehribon onalar tarbiyalayotgan farzandlar g'ururli, e'tiqodli, iymoni butun, mehnatsevar bo'lib voyaga etishgan. Bu esa bugungi kunda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar qatorida temuriy malikalar ma'naviy merosi asosida talaba-qizlarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirdi. Birgina Temur va temuriylar sulolasiga mansub xotin-qizlardan ayrimlariga to'xtalib o'taylik. Saroymulk xonim Amir Temurning rafiqasi, Qozonxonning qizi (1341-1408), Gavharshod begim Shohruh Mirzoning rafiqasi (1379-1457), Xonzoda begim Umarshayx Mirzoning to'ng'ich qizi, Boburning opasi (1477-1544), Gulbadan begim Zahriddin Muhammad Boburning uchinchi qizi (1523-1603), Nurjahon begim (Mehriniso) Jahongirshohning suyuqli xotini

(1577-1645), Mumtozmahal (Arjumand bonu) Shohjahonning xotini (1594-1631), Zebuniso begim Avrangzeb Olamgirning katta qizi (1639-1702) shular jumlasidandir.

Ushbu malikalar to'g'risida ko'pgina qo'lyozma toshbosma asarlarda tegishli ma'lumotlar uchraydi. Chunonchi, Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma"si, Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"si, Ibn Arabshohning "Ajoyib ul-maqdur fi axbori Taymur" (Temur haqidagi xabarlarda taqdir ajoyibotlari), Hofizi Abro'yning "Zubdat ut-tavorixi Boysung'uriy", Kamoliddin Abdurazzoq Samarqandiyning "Matlai sa'dayi va majmai baxrayn" (Ikki saodatli yulduzning chiqishi va ikki dengizning qo'shilish joyi), Foseh Xavofiyning "Mujmal-i Fosehiy" (Fosehiyning tarixlar majmuasi), Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma", G'iyosiddin Muhammad Xondamirning "Habib us-siyar fi axbor ofrod ul-bashar" (Inson xabarlarida do'stlarning tarjimai holi), Gulbadan begimning "Humoyunnoma" kabi asarlarida qimmatli ma'lumotlar berilgan.

Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha Sohibqiron bobomiz hayoti va ijodiga nazar tashlar ekanmiz, u oila a'zolari, farzandlari va oddiy xalqni yuksak axloqiy qoidalarga amal qilishga undagan, mamlakat sultoni sifatida talab qilganligining guvohi bo'lamiz. Uning barcha tarbiyaviy g'oyalari oilasiga, farzandlariga, ahli ayoliga, amiru-ulamolariga, saroy ayollariga bo'lgan munosabatlari orqali namoyon bo'lgan. Xotin-qizlarga bo'lgan hurmati, ularni ona, qiz, zaifa sifatida e'zozlash, har qanday xavf-xatardan himoya qilishi sog'lom farzandlarni dunyoga kelishi uchun zamin hisoblangan. Xotin-qizlar oila tayanchlari, hayotning davomiyligini ta'minlovchi ulug' kuch sifatida e'zozlangan. Shuning uchun temuriy malikalar fahm-farosatli, zukko, tadbirkor, ziyrak, oqila, ma'rifatli, insonparvar, dono bo'lib etishgan. Ushbu fazilatlaridan kelib chiqqan holda bugungi kunda tobora dolzarbligi ortib borayotgan jamoat orasida o'zini tutish qoidalari, xushmuomalalik odobi, yoshga qarab muloqotda bo'lish, salomlashish, holahvol so'rash qoidalari, kundalik turmush tartibi, kiyinish, kiyim tanlash me'yorlari, orastalik bilan bog'liq talablar, mehnat qilish va mehnatga munosabat odobi kabi xislatlarni talaba-qizlarimizda ma'naviy-axloqiy qadriyat sifatida takomillashtirib borishimiz zaruriyatga aylanmoqda. Pedagogikada tarbiyaning asosan uchta tipologiyasi qayd etilib, ular qattiqqo'llikka asoslangan avtoritar, yumshoqlikka asoslangan liberal hamda demokratik prinsipiga asoslangan tarbiya turlaridir. Yoshlar tarbiyasining samaradorligi, ularda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni takomillashtirish har bir oila, ta'lim muassasasida tarbiyaning qaysi prinsip asosida tashkil etilganiga bog'liq. Temuriy malikalar ma'naviy merosi asosida talaba-qizlarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni takomillashtirish ham kafolatlangan samaradorlik bera oladi, deb hisoblaymiz.

Bu haqda tarixchi olim Turg'un Fayziyevning temuriy malikalarga bag'ishlangan tadqiqot ishlari e'tiborga molik [2]. Olim Temur va temuriylar davri tarixini, jumladan, temuriy shahzodalar va malikalar haqidagi ma'lumotlarni to'plab, tahlil qilib, ko'plab tarixiy manbalarga tayanib 1995-yilda "Temuriylar shajarasi" kitobini nashr ettirdi. Xarakterli jihati shundaki asarda temuriy malikalar, ularning kelib chiqishi, insoniy fazilatlarini, shajaralari to'g'risida batafsil ma'lumot beradi. Olimning temuriy malikalarga bag'ishlangan yana bir risolasi Sharqning bulbuli deb nom olgan Zebuniso begimga bag'ishlangan. Muallif XVII asrda boburiylar xonadonida tug'ilib voyaga etgan Zebunisoning hayoti va faoliyati, madaniy merosiga oid ma'lumotlarni fors tilidagi manbalar orqali bayon qiladi.

Izzat Ahmedov tomonidan nashrga tayyorlangan "Dunyo malikalari" to'plamida muallif ko'pgina tarixiy hujjatlar, manbalardan foydalanib, dunyo mamlakatlarining aksariyatida

mashhur va tarixiy shaxsga aylangan ayollarning insoniyat tarixiga qo‘shgan salmoqli hissalarini, ko‘rsatgan xalq qahramonlarining jasoratlarini, davlatni qanday boshqarganliklari, oilaparvarligi, insoniy fazilatlarini kengroq yoritishga harakat qilgan. Ushbu to‘plamda temuriy malikalardan Saroymulk xonim, Gavharshod begim, Xonzoda begim, Gulbadan begim, Jahonoro begim, Zebuniso begimlar haqida ulardagi insoniy fazilatlar to‘g‘risida yozgan. Jumladan, “...Saroymulkxonim nozik did va farosat bilan o‘zgalardan ajralib turadigan, husn-latofat bobida ham benazir ayollardan edi. Saltanat ishlarida o‘z maslahatlari bilan qatnashib turar, ayniqsa, ilm-ma‘rifatga alohida e‘tibor ila qarab, tolibi ilmlarga homiylik qilardi”, - deb ta‘kidlaydi muallif [3].

Boburning eng sevimli farzandlaridan biri Gulbadan begim bo‘lgan. U saroyda katta obro‘-e‘tiborga sazovor bo‘lgan. Shu bois, Gulbadan begim akasi Xumoyun vafotidan keyin ham uzoq yillar yashab Boburiylar avlodi to‘g‘risida “Humoyunnoma” asarini yozadi. Ushbu asar oradan bir necha asr o‘tsa ham avloddan avlodga o‘tib kelmoqda. Manbalarga qaraganda Gulbadan begim o‘z davrining oqila, donishmand ayollaridan biri edi. U “Humoyunnoma” asarida saroy ahlining turmush tarzi, tarixiy asarlarda uchramaydigan Boburshoh xonadonining nozik xususiyatlari, oilaviy sharoitlari, to‘y va aza bilan bog‘liq udumlar, uy-ro‘zg‘or asboblari, kiyim-kechak turlari va boshqa jihatlar haqida batafsil bayon qiladi.

“Humoyunnoma”da XVI asrda Bobur ayniqsa, Humoyun saroyidan xotin-qizlar ahvoli va ularning feodal jamiyatda tutgan o‘rinlari haqida ko‘p fikr-mulohazalar bildirilgan. Gulbadan begimning yozishicha “begimlar” ayrim hollarda davlatda katta o‘rin tutganlar. Masalan, Gulbadan begimning o‘zi Humoyun davrida davlat miqyosida diplomatik munosabatlarda ishtirok etgan. Ular shodlik kunlarida mardona kiyimlar kiyishganlar va chavandozlik, tirandozlik kabi o‘yinlarda faol qatnashganlar [4].

“Humoyunnoma” asarida ta‘kidlanishicha o‘rta asr tarixchilari orasida bizga faqat ikkita xotin-qiz manbashunosning nomi ma‘lum. G‘arbdagi olim – tarixchi vizantiyalik malika Anna Komen (XI-XII asr) bo‘lib, u o‘z otasi va akasining tarixini yaratgan. O‘rta Sharqda esa O‘rta Osiyo, Hindiston va qisman Afg‘oniston tarixining ma‘lum bir davrini mohirona aks ettirgan Gulbadan begim o‘z davrining murakkab feodal munosabatlarini nihoyat chuqur fahmlay olgan va u voqealarni ta‘sirli jumladan bayon qila olgan ajoyib shaxsdir [5].

Amir Temur yaratgan “Temur tuzuklari” faqat tarixiy jihatdan emas, balki falsafiy, ijtimoiy-pedagogik, psixologik fikrlarga boyligi jihatidan ham alohida ahamiyatga ega. Undagi ta‘lim-tarbiyaga oid g‘oyalardan o‘z davrida va undan keyingi davrlarda ham keng foydalanilgan [6].

Shuningdek, muallif “...1399 — yilda Temur Xalil Sultonni uylantirib qo‘ydi. O‘zining Sherbeka og‘o degan singlisi va amirzoda kuyovi Alining qizi Jahonsulton begimni olib berdi. Jahonsulton begim oppoq yuzli, bo‘yi sal pastroq bo‘lsa ham qomati qarag‘aydek tippa-tik va tekis, sochlari quyuuq, kamgap, kamsuqum, ammo metin irodali qiz edi. Qilichbozlikni, ot minishni ham o‘rinlata, sochlarini telpak ostiga qistirib, ro‘moli bilan tang‘ib, yigitlar qatori jang-jadalga ham kirib ketaverardi”, — deb ta‘kidlaydi [4].

Bu gapning hech qanday mubolag‘ali joyi yo‘q ekanligini tarixchi Ibn Arabshoh: “Temur askari ichida ayollar ham ko‘p bo‘lard. Erkak jangchilarga qarshi turib, nayza sanchishda, qilich bilan zarba berishda va kamondan otishda erkaklardan ham ortiqroq ish qilgan paytlari ko‘p bo‘lard”, — deb yozdi.[7]

Zebuniso begim Zahiriddin Muhammad Boburning pannevarasi Abu Zafar Muhiddin Muhammad Avrangzeb Olamgirning qizidir. U o'z zamonasining fozila ayollaridan Hafiza Maryam Bonu qo'lida savod chiqargan. Zebuniso begim zabardast shoira, etuk olim, usta tanbur chertuvchi sozanda va mohir xattot bo'lib etishadi. Arab-fors tillarining sarfu nahv (morfologiya va sintaksis)ini, fiqh (qonunshunoslik), mantiq, falsafa, tarix fanlarini puxta o'zlashtiradi. Zebuniso begim himmatli bo'lib, olimlarga, shoirlarga va san'at ahillariga g'amxo'rlik hamda homiylik ko'rsatib, ularga maosh ham to'lab turgan. Fikrimizni "O'lami Islom" tazkirasidagi "Zebuniso begim otasi hukmdorlik bilan qozonolmagan shuhratni ilm va odob bilan qozongan" jummalari tasdiqlaydi.

Tadqiqotchi R.Aleuva "Amir Temurning mafkuraviy-tarbiyaviy qarashlari" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida sohibqiron bobomizning o'tmishdagi madaniy-ma'naviy merosiga, ota-bobolarimizdan qolgan bilim va hayot tajribalariga alohida e'tibor berganligini qayd etadi [8].

Yangi O'zbekiston barpo etilayotgan sharoitda talaba-qizlarimizda yuksak axloqiy sifatlarni shakllantirish o'quv-tarbiya jarayonining muhim, ajralmas qismiga aylanmoqda. Mustaqil ijodiy fikrlay oladigan, kasbiy tayyorgarlik bilan bir qatorda ma'naviy pok, axloqiy-ijtimoiy faol qizlarni kamol toptirish davr talabi bo'lib qolmoqda.

Bugungi globallashuv davrida yoshlarning milliy tarix va ma'naviy merosga bo'lgan qiziqishini oshirish muhim vazifalardan biridir. Temuriy malikalar faoliyatini talaba-qizlarga o'rgatish orqali ularda milliy g'urur, tarixiy xotira va ma'naviy qadriyatlarga hurmat tuyg'ulari shakllanadi.

Oliy ta'lim muassasalarida tarix, adabiyot va madaniyat fanlari doirasida Temuriy malikalar merosi haqida maxsus mavzularni o'rganish talaba-qizlarning ilmiy dunyoqarashini kengaytiradi. Shuningdek, seminarlar, davra suhbatlari, ilmiy konferensiyalar hamda tarixiy obidalarga ekskursiyalar tashkil etish bu bilimlarni yanada mustahkamlashga yordam beradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Temuriylar davri nafaqat siyosiy va iqtisodiy taraqqiyot, balki ilm-fan, madaniyat va ma'naviyat yuksalgan davr sifatida ham tarixda muhim o'rin egallaydi. Bu jarayonda Temuriy malikalar - Saroymulxonim, Gavharshodbegim, Gulbadanbegim va boshqa ayol siymolar katta rol o'ynagan. Ularning ilm-fan, madaniyat, bunyodkorlik hamda xayriya ishlari orqali jamiyat ma'naviy hayotiga qo'shgan hissasi tarixiy, ilmiy va adabiy manbalarda keng yoritilgan. Ushbu merosni talaba-qizlarga o'rgatish orqali ularda milliy qadriyatlarga hurmat, tarixiy xotira va ayollarning jamiyatdagi o'rni haqidagi tasavvurlar yanada boyiydi. Temuriy malikalar faoliyatini o'rganish talaba-qizlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini mustahkamlashga, ularni ilmga intilish va jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shishga undaydi. Shulardan keli chiqib, quyidagi mulohazalarni tavsiya qilish mumkin:

- Oliy ta'lim muassasalarida Temuriy malikalar merosiga bag'ishlangan mavzularni tarix, adabiyot va madaniyat fanlari doirasida kengroq yoritish maqsadga muvofiq.
- Talaba-qizlar uchun tarixiy manbalar va ilmiy-adabiy asarlar asosida maxsus seminar va davra suhbatlari tashkil etish tavsiya etiladi.
- Temuriy malikalar faoliyati haqida ilmiy maqolalar, referatlar va tadqiqot ishlarini tayyorlashga talaba-yoshlarni jalb qilish zarur.
- Muzeylar, tarixiy obidalar va madaniy maskanlarga ilmiy-ma'rifiy ekskursiyalar tashkil etish orqali tarixiy merosni amaliy ravishda o'rganish samarali bo'ladi.

- Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interaktiv metodlardan foydalanib, Temuriy malikalar merosini o‘qitish jarayonini yanada qiziqarli va samarali tashkil etish lozim.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2022. - 440 b.
2. Fayziyev T. Temuriy malikalar. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994. – 40 b.
3. Ahmedov I. Dunyo malikalari. –Toshkent: Zarqalam nashriyoti, 2005. –140 b.
4. Gulbadan begim. Humoyunnoma. – Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2016. – 60 b.
5. Davletshin M., Shoumarov G'. Zamonaviy o‘zbek oilasining psixologik xususiyatlari. – Toshkent, 1993. – 32 b.
6. Fayziyev T. Temuriylar shajarasi. – Toshkent: Info kapital books nashriyoti, 2020. – 368 b.
7. Ibn Arabshoh. Ajoyib al-maقدur fi tarixi Taymur. – Toshkent.: Mehnat nashriyoti, 1992. – 192 b.
8. Aleuva R. Amir Temurning mafkuraviy-tarbiyaviy qarashlari: ped. fan...(PhD) diss. – Toshkent, TDPU, 2006. – 134 b.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 4 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).